| TRANSPORT TIZIMI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....                                                                   | 226 |
| <b>Mannonov Shoxruhmirza Abdurashid o'g'li</b>                                                                                                  |     |
| AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI .....           | 231 |
| <b>Bekchanov Faxriddin Atabekovich</b>                                                                                                          |     |
| FINANCING SYSTEM OF EXPORT ACTIVITIES OF SMALL BUSINESS ENTITIES IN THE IMPROVING....                                                           | 234 |
| <b>Karamatdinova Aysawle Paraxatovna</b>                                                                                                        |     |
| GENERATIV SUN'IY INTELLEKT INFRATUZILMASINING MINTAQAVIY IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYA QILISHDAGI O'RNI .....                                   | 236 |
| <b>Saidov Jaloladdin Allaberganovich</b>                                                                                                        |     |
| STRATEGIC INTEGRATION OF DIGITAL MARKETING TECHNOLOGIES IN SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES: DRIVERS, BARRIERS, AND ECONOMIC PERFORMANCE..... | 239 |
| <b>Pirmatov Oybek Shovkat ugli</b>                                                                                                              |     |
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNING HUDUDIIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....                                              | 243 |
| <b>Reimbergenov Xurrambek Xushnudovich</b>                                                                                                      |     |
| FEATURES AND PRINCIPLES OF ECONOMETRIC MODELING OF INDUSTRIAL DEVELOPMENT.....                                                                  | 246 |
| <b>Choriev Tolib Azamovich</b>                                                                                                                  |     |
| FEATURES OF INVESTMENT BEHAVIOUR IN THE CONTEXT OF FINTECH TECHNOLOGY DEVELOPMENT .....                                                         | 251 |
| <b>Karimova Nurjakhon Olim kizi</b>                                                                                                             |     |
| DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA HUDUDIIY INFRATUZILMAGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH MECHANISMS TAKOMILLASHTIRISH .....                        | 255 |
| <b>Ismoilov Azizbek Rustamjon o'g'li</b>                                                                                                        |     |



|                                                                                                                                         |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON BOZORLAR ORQALI XALQARO SAVDONI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....                                | 259 |
| Hamroyeva Umida                                                                                                                         |     |
| TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYANING IQTISODIY MAZMUNI VA NAZARIY ASOSLARI.....                                    | 262 |
| Sarimsaqov Sherzod Xamidovich                                                                                                           |     |
| INCREASING THE COMPETITIVENESS OF ENTERPRISES IN THE CONSTRUCTION MATERIALS INDUSTRY .....                                              | 268 |
| Toshpulatov Asronbek Mutalibovich                                                                                                       |     |
| O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BOZORI ORQALI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH AMALIYOTI VA ISTIQBOLLARI.....                      | 272 |
| Otabek Oltiboyev                                                                                                                        |     |
| TASHQI SAVDO OPERATSIYALARIDA VALYUTA NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH .....                              | 275 |
| Israilov Avazbek Rustam o'g'li                                                                                                          |     |
| XALQARO UNIVERSITET BOSHQARUVIDA STAKEHOLDER YONDASHUVI: ZAMONAVIY MODELLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....                          | 277 |
| Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich                                                                                                   |     |
| ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОДДЕРЖКИ В УПРАВЛЕНИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ СЕМЕЙНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....                         | 279 |
| Султанов Бобирмирзо Мавлонжон угли                                                                                                      |     |
| TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA HAL ETISH ..... | 283 |
| Abdulkarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi                                                                                                  |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI .....                                   | 287 |
| Nurullayeva Mexribon Muratovna                                                                                                          |     |
| OPTIMIZATION OF THE FOOD SUPPLY AND DELIVERY SYSTEM IN TASHKENT REGION .....                                                            | 290 |
| Mavlanov Sobirjon Pardabayevich                                                                                                         |     |
| THEORETICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL PROTECTION AND ITS INTERRELATIONSHIP WITH SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT.....                       | 293 |
| Abduzoirov Mukhiddin, Abdulloev Amrullo, Inomjon Qudratov                                                                               |     |
| SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI BOSHQARISHGA OID ILMIY YONDASHUVLARNING EVOLYUTSIYASI.. .....                                              | 299 |
| Kurbanov S.A.                                                                                                                           |     |
| INSTITUTIONAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN RURAL UZBEKISTAN: AN ECONOMIC AND STATISTICAL ANALYSIS .....    | 304 |
| Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi                                                                                                        |     |
| ФАКТОРИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ УПРАВЛЕНИЯ ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТЬЮ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ .....                                            | 310 |
| Дадабоева Муштари Хамидиллаевна                                                                                                         |     |
| QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA ISTIQBOLLARI .....                                                     | 314 |
| Berdiyev Abdumalik Hakimovich                                                                                                           |     |
| RAQAMLI ASALARICHILIK TEXNOLOGIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH TAMOYILLARI .....                                                        | 318 |
| Farmanov Jonibek Ziyadullaevich                                                                                                         |     |
| СУЩНОСТЬ И ОСОБЕННОСТИ УВЕЛИЧЕНИЯ КАПИТАЛИЗАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....                                                                | 322 |
| Шомуродов Равшан, Жуманазаров Шахобиддин                                                                                                |     |
| INVESTITION FAOLLIKNI OSHIRISHNING MOLIYA-KREDIT MEKANIZMI: XORIJIY DAVLATLAR AMALIY TAJRIBASI .....                                    | 326 |
| I. Madaminov                                                                                                                            |     |



|                                                                                                                 |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI OSHIRISHNING AYOLLAR FAROVONLIGI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI ..... | 329 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|

**Raxmatov Ziyodullo, Abdukarimova Dilnozaxon**



# TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI OSHIRISHNING AYOLLAR FAROVONLIGI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI

**Raxmatov Ziyodullo Nosirovich**

TDTU, Korporativ boshqaruv kafedrası mudiri

**Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi**

Bank-moliya akademiyasi, Loyiha boshqaruvi magistri

ORCID: 0009-0006-3357-4096

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqotda transport sohasida ayollar bandligini oshirishning ayollar farovonligi va mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda transport sektorida xotin-qizlar bandligining mavjud holati, ularning mehnat bozorida ishtirokiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar hamda ayollar uchun transport va logistika sohasida yuzaga kelayotgan yangi kasbiy imkoniyatlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ayollar bandligini oshirish ularning daromadlari va moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, oilalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, kasbiy salohiyatini rivojlantirish hamda mamlakat mehnat resurslaridan samarali foydalanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. Tadqiqot ishida transport sohasida ayollar bandligini kengaytirish uchun ularni zamonaviy kasblarga tayyorlash va qayta tayyorlash, xavfsiz va moslashuvchan mehnat sharoitlarini yaratish, gender stereotiplarini kamaytirish hamda ish va oilaviy majburiyatlarni uyg'unlashtirishga ko'maklashuvchi integratsiyalashgan boshqaruv modelini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** transport sohasi, ayollar bandligi, gender tengligi, ayollar farovonligi, iqtisodiy rivojlanish, gender stereotiplari.

**Abstract.** This study analyzes the impact of increasing women's employment in the transport sector on women's well-being and the country's economic development. It examines the current state of women's employment in the transport sector, the main factors hindering their participation in the labor market, and emerging professional opportunities for women in transport and logistics. The study also substantiates that increasing women's employment can contribute to higher incomes and greater financial independence, strengthen household economic stability, enhance women's professional potential, and promote more efficient use of the country's labor resources. The research proposes improvements to an integrated management model aimed at expanding women's employment in the transport sector through training and retraining for modern occupations, the creation of safe and flexible working conditions, the reduction of gender stereotypes, and support for balancing work and family responsibilities.

**Keywords:** transport sector, women's employment, gender equality, women's well-being, economic development, gender stereotypes.

**Аннотация.** В данном исследовании проанализировано влияние расширения занятости женщин в транспортной сфере на благосостояние женщин и экономическое развитие страны. Рассмотрены текущее состояние занятости женщин в транспортном секторе, основные факторы, препятствующие их участию на рынке труда, а также новые профессиональные возможности для женщин в сфере транспорта и логистики. Обосновано, что расширение занятости женщин способствует росту их доходов и финансовой независимости, укреплению экономической устойчивости семей, развитию профессионального потенциала и более эффективному использованию трудовых ресурсов страны. В исследовании разработаны предложения по совершенствованию интегрированной модели управления, направленной на расширение занятости женщин в транспортной сфере посредством их подготовки и переподготовки по современным профессиям, создания безопасных и гибких условий труда, снижения влияния гендерных стереотипов, а также содействия совмещению трудовых и семейных обязанностей.

**Ключевые слова:** транспортная сфера, занятость женщин, гендерное равенство, благосостояние женщин, экономическое развитие, гендерные стереотипы.

## KIRISH

Transport odamlar, hayvonlar va yuklarni bir joydan boshqa joyga ko'chirish jarayonini ta'minlovchi muhim iqtisodiy faoliyat sohasi bo'lib, havo, quruqlik, suv hamda kosmik transport turlarini qamrab oladi. Transport insonlar o'rtasidagi savdo-sotiqni ta'minlash, aholining harakatchanligini oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Bugungi kunda transport sohasining jadal rivojlanishi ushbu tarmoqda malakali mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyojni tobora oshirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mehnat bozorida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini kengaytirish, ularning transport sohasida munosib va barqaror ish o'rinlari bilan ta'minlanishini rag'batlantirish muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayollar bandligining ortishi esa nafaqat ularning shaxsiy va oilaviy daromadlarini oshirishga,

balki kambag'allik xavfini kamaytirish hamda ayollarning jamiyatdagi iqtisodiy mavqeini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi transport sohasida ayollar bandligini oshirishning ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligi hamda mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida transport sohasida xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirishga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutiladi.

Mazkur tadqiqot doirasida o'rganilgan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, transport sohasida erkaklar bandligining ulushi an'anaviy ravishda yuqori bo'lib kelgan [2]. Shu sababli, ayollarning global transport sektori ishchi kuchidagi ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda, butun dunyo bo'yicha transport va omborxona sohasida ishlovchi xodimlarning taxminan 12 foizini ayollar tashkil etadi. Ayollarning ishtiroki transport sohasining kichik tarmoqlariga qarab farq qiladi: jahon miqyosida quruqlik transportida ishlovchilarning 5 foizi, suv transportida 10 foizi, omborxona va transportni qo'llab-quvvatlash faoliyatlarida 21 foizi, aviatsiya sohasida esa 38 foizi ayollardan iborat. Shuningdek, hududlar bo'yicha ham sezilarli farqlar mavjud. Masalan, Yevropada transport va omborxona sohasida ishlovchilarning 21 foizini ayollar tashkil etsa, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasida ushbu sohadagi ayollar bandligi ulushi ancha past bo'lib, 3 foizni tashkil etadi. Gender tafovuti, ayniqsa, yuqori rahbarlik, texnik va operatsion lavozimlarda kuzatiladi. Ayollar transport sohasida ko'proq ma'muriy yoki xizmat ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatlarda ishtirok etsa, yuqori malaka talab etuvchi texnik kasblarda, jumladan, haydovchilik, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, muhandislik hamda uchuvchilik yo'nalishlarida erkaklar ulushi yuqoriligicha qolmoqda [3].

Bu borada ayollarning transport sektoridagi ishtiroki nisbatan past bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarni ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. mehnat sharoitlari (jumladan, ish vaqti, ishning bajarilish vaqti hamda ish joyining joylashuvi);
2. gender stereotiplari [4].

Mazkur omillarni bartaraf etish va transport sohasida ayollar uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish nafaqat gender tengligini ta'minlash, balki mamlakat mehnat resurslaridan samarali foydalanish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnatga layoqatli aholining salmoqli qismini tashkil etuvchi xotin-qizlarning iqtisodiy jarayonlarga faol jalb etilishi mavjud mehnat salohiyatidan to'liqroq foydalanish imkonini beradi. Ayniqsa, zamonaviy transport xizmatlari, logistika, raqamli texnologiyalar, boshqaruv, dispetcherlik, xizmat ko'rsatish va boshqa yo'nalishlarda ayollar uchun yangi kasbiy imkoniyatlarning shakllanishi ularning bandlik darajasini oshirishga zamin yaratadi.

Mazkur jarayonni O'zbekiston Respublikasi misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2026-yil 6-fevralda e'lon qilgan ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yakunlari bo'yicha 224 ta taksi agregatori soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan va ular orqali jami 479 mln. marotaba yo'lovchi tashish amalga oshirilgan. Yo'lovchi tashish aylanmasi 9,6 trln. so'mdan oshgan. Agregatorlar orqali yo'lovchi tashish faoliyati bilan 574 625 nafar o'zini o'zi band qilgan haydovchi shug'ullangan bo'lib, ularning 4 726 nafari ayollarni tashkil etgan [5]. Ushbu ko'rsatkichlar raqamli transport xizmatlari ayollar uchun ham yangi bandlik imkoniyatlarini shakllantirayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayollarning ushbu sohadagi ulushi hali ham nisbatan past bo'lib, transport xizmatlarida xotin-qizlar bandligini oshirish uchun mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, transport sohasida ayollar bandligining kengayishi, avvalo, ularning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, doimiy va barqaror ish bilan ta'minlangan ayolning shaxsiy daromadi ortadi, bu esa oilalarning umumiy daromadlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, bandlik ayollarning kasbiy malakasini oshirish, yangi ko'nikmalarni egallash, moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish va ijtimoiy faolligini oshirish uchun imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, ayollarning transport va logistika sohasiga faol jalb qilinishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo'shishi mumkin.

Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi oshishi mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini kengaytiradi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida qo'shimcha inson kapitalini shakllantiradi, uy xo'jaliklari daromadlarini oshiradi hamda iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi. Jahon bankining o'z rasmiy saytida berilgan ma'lumotlariga ko'ra, transport xarajatlari, xavfsizlik bilan bog'liq muammolar va transport xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi qizlarning maktabga borishiga, ayollarning tibbiy xizmatlardan foydalanishiga hamda ularning yashash joyidan uzoqda joylashgan ish o'rinlarini izlashiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bunday harakatchanlikdagi to'siqlar ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini cheklab, iqtisodiy o'sishni susaytiradi. Aksincha, ayollarning mehnat bozoridagi to'liq ishtirokini ta'minlash global yalpi ichki mahsulotni qariyb 20 foizga oshirishi, shu orqali kambag'allikni kamaytirishga yordam berishi mumkin [6].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, transport sohasida ayollar bandligini oshirish nafaqat gender tengligini ta'minlash, balki ayollar farovonligini yaxshilash, oilalar daromadlarini oshirish va mamlakat iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishning muhim omillaridan biridir. Transport sohasi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli, ushbu tarmoqda xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirish umumiy iqtisodiy faollik va bandlik ko'rsatkichlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Shu bilan birga, tadqiqot natijalari transport sektorida ayollar ulushining nisbatan pastligi, avvalo, mehnat sharoitlarining o'ziga xosligi, ish vaqtining moslashuvchan emasligi, ish joylarining hududiy joylashuvi, xavfsizlik bilan bog'liq omillar hamda transport kasblariga nisbatan shakllangan gender stereotiplari bilan izohlanishini ko'rsatadi. Ayniqsa, texnik, operatsion va yuqori darajadagi boshqaruv lavozimlarida ayollar ishtirokining nisbatan pastligi mavjud mehnat salohiyatidan yanada samarali foydalanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va ayollarning transport sektoridagi iqtisodiy faolligini kengaytirish, avvalo, ular uchun munosib va barqaror ish o'rinlarini yaratishni talab etadi. Ayollarni transport sohasiga kengroq jalb etish ularning shaxsiy daromadlari va moliyaviy mustaqilligini oshirish bilan birga, oilalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Barqaror bandlik ayollarga kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish hamda jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida faolroq ishtirok etish imkonini beradi. Shu jihatdan, transport sohasida ayollar bandligini oshirish nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan strategik vazifa sifatida qaralishi lozim.

Ushbu vazifalarni samarali hal etish transport sohasida ayollar bandligini oshirishga qaratilgan integratsiyalashgan boshqaruv modelini takomillashtirishni taqozo etadi. Buning uchun, birinchidan, ayollarni transport va logistika yo'nalishlaridagi zamonaviy kasblarga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish; ikkinchidan, ayollar uchun xavfsiz, qulay va moslashuvchan mehnat sharoitlarini yaratish; uchinchidan, transport kasblariga nisbatan mavjud gender stereotiplarini kamaytirish va ayollarning texnik hamda boshqaruv lavozimlaridagi ishtirokini kengaytirishni qo'llab-quvvatlash; to'rtinchidan, ish va oilaviy majburiyatlarni uyg'unlashtirishga ko'maklashuvchi mexanizmlarni kengaytirish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, transport sohasida ayollar bandligini oshirish ijtimoiy rivojlanish bilan bir qatorda mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Ayollarning mehnat salohiyatidan samarali foydalanish transport tizimining inson resurslari bazasini kengaytirib, soha samaradorligini oshirishga, ayollar va oilalar farovonligini yaxshilashga hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Transport // Wikipedia: The Free Encyclopedia. – URL: <https://en.wikipedia.org/wiki/Transport> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
2. Akhmedova R., Mirzaghayeva N. Theoretical review of the psychological aspects of women's characteristics in the transport industry // Journal of Daoist Studies. – 2026. – Vol. 19, No. S7. – P. 1388–1393. – URL: <https://journalofdaoiststudies.org/index.php/journal/article/view/1358> (murojaat sanasi: 21.08.2026).
3. Kurshitashvili N. et al. Addressing Barriers to Women's Participation in Transport: Global, ECA, and MENA Perspectives. – Washington, DC: World Bank Group, 2025. – 74 p.
4. Turnbull P. Promoting the Employment of Women in the Transport Sector: Obstacles and Policy Options. – Geneva: International Labour Organization, 2013. – 50 p. – (Working Paper No. 298). – URL: <https://www.ilo.org/publications/promoting-employment-women-transport-sector-obstacles-and-policy-options> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
5. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. "Taksi"dagi shaffoflik 9,6 trln so'mlik aylanmani ko'rsatdi [Elektron resurs]. – 06.02.2026. – URL: <https://gov.uz/oz/soliq/news/view/128955> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
6. World Bank. She Drives Change: Empowering Women in Transport [Electronic resource]. – 10.07.2025. – Washington, DC: World Bank. – URL: <https://www.worldbank.org/en/results/2025/07/10/she-drives-change-empowering-women-in-transport> (murojaat sanasi: 04.08.2026).

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)